

**ORIFXON XOTAMOV IJODIDA MUMTOZ G‘AZAL VA MUSIQA
UYG‘UNLIGI****Shermatova Lobar Erkinjon qizi***Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va
san‘atshunoslik fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq hofizi, buyuk ustoz san‘atkor shu bilan birga g‘azallarni kuy bilan uyg‘unlashtirgan atoqli bastakor Orifxon Xotamovning hayot yo‘li hamda o‘zbek milliy musiqa san‘atiga qo‘shgan ulkan hissasi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *bastakor, hofiz, g‘azal, kuy, ashula, sozanda.*

Аннотация: *В статье рассматриваются жизненный путь народного хафиза Узбекистана, выдающегося мастера искусства, а также известного композитора, гармонично соединившего газели с мелодией, Орифхона Хотамова и его огромный вклад в развитие узбекского национального музыкального искусства.*

Ключевые слово: *композитор, хафиз, газель, мелодия, песня, музыкант-исполнитель.*

O‘zbekiston xalq hofizi, shirali ovoz sohibi, yuzdan ortiq musiqa va ashulalar muallifi hamda ziyoli olim Orifxon Xotamov 1926-yil 10-oktabrda Jizzax viloyatida Ne‘matovlar oilasida tug‘iladi. Orifxon 7 yosh paytida Yangiy o‘l tumaniga oilasi bilan ko‘chib keladilar. Biroz muddat shu yerda yashab, so‘ngra Toshkent tumaning Oxunboboyev kolxoziga ko‘chib o‘tishadi va Orifxon o‘rta maktabni shu yerda tamomlaydi. Musiqa ilmini esa dastlab maktab to‘garagida o‘rgangan. Uning ayni bilim oladigan, izlanadigan, ijod qiladigan payti urush yillariga to‘g‘ri keldi. Bu urush zahmati Orifxon Xotamovni ham chetlab o‘tmadi. Oilasining iqtisodiy taraflama qiynalayotganini ko‘rgan Orifxon oilasiga biroz bo‘lsada yordam berish maqsadida o‘zini har tarafga urib daromat topishga xarakat qiladi, lekin uning qalbidagi musiqaga, san‘atga bo‘lgan ishtiyoq va muhabbat yo‘qolmadi. Unga yoshligida otasi tomomidan berilgan mumtoz adabiyot borasidagi bilimlar anchagina asqotdi va bu bilimlar besamar ketmadi. Orifxon Xotamov 1945-yilda O‘zbekiston davlat filarmoniyasiga ishga qabul qilingan. Lekin aynan shu davrda notani bilish, notaga qarab ijro etish, asosan milliy cholg‘u sozlarida G‘arb kompozitorlarning asarlarini ijro etishga talab kuchaygandi. Zamon bilan xamnafas Orifxon Xotamov ham Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o‘qishga kirib, Z.Qodirov rahbarligida g‘ijjak cholg‘usidan saboq oladi. (1950-1954) 1956-yildan boshlab esa Doni Zokirov rahbarligidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga ishga kiradi va shu bilan uning professional bastakorlik hayoti boshlanadi. Taqdir charxpalagi uni o‘z davrining afsonaviy xonandasi Jo‘raxon Sultonov bilan

yuzlashtiradi. Bu esa Orifxon uchun xonandalik saboqlarini mukammal o'rganish imkoni degani edi va u bu imkoniyatdan samarali foydalandi.

Orifxon bolalik paytlaridan she'r va g'azallarni sevib mutolaa qilardi. Shuning uchun u she'r hamda g'azallarni juda ifodali, shuningdek ta'sirli qilib o'qir edi. Buni bilgan ustoz ya'ni Jo'raxon Sultonov uni ustoz xonanda va sozandalar o'rtasida bo'lib o'tadigan "Nazm va navo" kechalariga olib borar edi. Orifxon u yerda hammaning ko'nglidan joy olgan, uning ijrosidan ustoz san'atkorlar ham mamnun bo'lishgan. Orifxon Xotamov dastlab o'nga yaqin g'azallarni bastalay boshladi. Keyinchalik esa u g'azal misralarini o'qishni boshlashi bilan uning quloqlari ostida musiqa ohanglari jaranglay boshlaydi. Bu albatta bastakorga Alloh tomonidan juda katta iqtidor berilganligining isbotidir. Ustoz bastakor ashula ijro etayotganda ashula matnining mazmunini birinchi o'ringa qoyar edi, ijro etishdan avval misralarni aniq o'qib mazmuniga tushunganidan so'ng ijro etardi. Ya'ni Orifxon ustoz uchun birinchi navbatda ashulaning ohangi yoki musiqasi emas balki ashulaning so'zlari muhim edi. Orifxon Xotamov shunday ziyrak, aqlli va sinchkov bo'lgani uchun ham ustoziga unga boshqacha mexr berar va uni o'z merosxo'ri sifatida ko'rar edi. Bastakor bastalagan g'azallari ichida unga eng katta obro' -e'tibor olib kelgan asar bu "Qoshi yosinmu deyin" g'azalidir. Ashula "Ushshoq" ohanglari asosida bastalangan. Uning avj pardasi Farg'ona-Toshkent yo'llaridagi "Savti Ushshoq" ohanglarining qisqartirilgan namunasidir. Ashula yana "Ushshoq" ohangi bilan yakun topadi.⁴⁶ Bu g'azalning mazmuniga e'tibor bersak, bu g'azal mumtoz ishqiy janrdagi g'azaldir. Ishaqiy g'azallar asosan ikki uslubda yoziladi: "Zotiniy va "Botiniy" ma'nolarda. Bu yerda zotiniy ma'nodagi g'azal oddiy ishq, ya'ni mashuqani vaslini istash ma'nosida yoziladi. Botiniy uslubdagilar esa Allohga bo'lgan ilohiy muhabbat mazmunidagi g'azalardir. Ushbu "qoshi yosinmu deyin" g'azali ham botiniy uslubga mansubdir. Ya'ni "yor" atamasi Allohga nisbatan, yorning go'zalligi – Tangrining ilohiy jamoli, oshiqning ojizligi-Parvardigorning qarshisida bandaning zaifligi, hijron esa Yaratganga yetisholmaslik izdirobini nazarda tutilayotgan bo'lishi mumkin. Bu g'azaldan tashqari Orifxon Xotamov ko'plab mashhur g'azallarni kuy bilan uyg'inashtirgan. Bularga misol qilib "Hoh inon, hoh inonma", "Sensiz", "Yor o'tdimu?", "Orazing nazmoyon qil", "Qaro bo'lubtur" asarlarini keltirish mumkin. Orifxon Xotamov g'azallarni bastalashdan tashqari o'zining ko'plab mualliflik ashulalarini ham yaratgan. Bulardan "Bo'lmish", "Naylayin", "Firoqingizdan", "Bu oqshom", "Dog'man", "Bo'yingdan o'rgilay", "Bilmas" ashulalari xalq ichida ma'lum va mashxurdir. Ushbu ashulalar ichida "Bo'lmish" ashulasiga alohida to'xtalib o'tishimiz zarur. Bu ashula Jo'raxon Sultonov ijodiga mansub "O'lmasun" ashulasidan andoza olgan holda yaratilgan. Ashula "O'lmasun" dan ko'ra ancha shaxdam, umuman olganda Jo'raxon Sultonov

⁴⁶ M.Norqo'ziyev Mutaxassislik An'anaviy xonandalik: Orifxon Hotamovning bastakorli ijodi. T.: "Iqtisod-moliya" 2018, 15-b

ijrosiga umuman o'xshamas edi. Lekin asarda Jo'raxon Sultonov an'anasi yaqqol sezilib turardi. "Bo'lmish" bastakor ijodining ilk bosqichlarida yaratilgan, ya'ni ushbu ashula Orifxon Sultonovning ilk ijod namunasi. Aynan mana shu asarni ijro etganidan so'ng ustoz Jo'raxon Sultonovning nazariga tushgan desak ham bo'ladi. Ushbu qo'llab-quvvatlashdan bastakorning o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortadi va yana ijod qilishda davom etadi.

Albatta ustoz san'atkor bu mehnatlarini mevasini ko'rish baxtiga erishdi, ko'plab mukofotlar va unvorlarga sazovor bo'ldi:

1977-yilda O'zbekiston radiosi qoshidagi maqomchilar tanlovi g'olibi,

1983-yilda respublika miqyosidagi ko'rik tanlovlar laureati va shu kabi ko'plab tanlovlar g'olibi bo'lgan.

1987-yili "O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan artist" unvoni va 1999-yilda "O'zbekiston xalq hofizi" faxriy unvoniga musharraf bo'ldi.

Bastakor umrining oxirgi yillarini Toshkent shahrida o'tkazdi va 2005-yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

Ustozimiz Orifxon Xotamov bu dunyodan ko'z yumib ketgan bo'lsada uning asarlari, ashulalari haligacha xalqmiz qalbida yashab kelmoqda, uning asarlariga hanuzgacha talab kuchli bo'lganligi sababdan ashularini yosh shogirdlari yangicha va zamonaviy uslubda ommaga taqdim qilmoqdalar. Bunga qo'shimcha sifatida 2017-yil 17-noyabr sanasida qabul qilingan "Maqom san'atini yanada rivojlantirish" to'g'risidagi qaror ham ko'plab san'at sohasiga qadam qo'yayotgan yosh shogirdlarga o'zini namoyon qilish uchun keng yo'l ochdi va shu bilan birga ushbu qaror sharofati bilan o'zbek milliy musiqasiga tamal toshi qo'ygan ko'plab bastakorlar va san'atkorlarni ijodini qayta yo'lga qo'yish imkoniyatini bermoqda.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib, aytish joizki insonni nafaqat iste'dodi balki xulq-atvori ham unga hurmat olib kelishi mumkin. Ya'ni o'zbek musiqa namoyondalari ichida juda ko'p bastakor va hofizlar bor, lekin biz bugun Orifxon Xotamovni qanchalik kamtarin va ko'ngli ochiq inson bo'lganlarini guvohi bo'ldik. San'at sohasida asosan yaratilgan asarlar miqdori, soni emas, balki asarning mazmun mohiyati, sifati asosiy o'rinda turadi. Orifxon Xotamov ham o'z ijod yo'lini shu qoidaga amal qilgan holda olib brogan. Balki bastakorning asarlari son sanoqsiz emasdir, lekin uning har bir asarining tafti yetib bormagan qalb yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Norqo'ziyev Mutaxassislik An'anaviy xonandalik: Orifxon Hotamovning bastakorlik ijodi. T.: "Iqtisod-moliya" 2018
2. Rajabov Is'hoq. Maqomlar. T.: San'at. 2006
3. Otajon Urfon. San'at mening quyoshimdir. T.: Yangi asr avlodi, 2006
4. Yusupov Sh. San'at va hayrat. – T.: Ma'naviyat, 2007

5. A.Jabborov. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari. T.:
Musiq, 2018